

2016 yilning 25 iyundagi
AJ “O’zmetkombinat”
Aksiyadorlari umumiy yig’ilishi qarori
bilan “TASDIQLANGAN”
33 – sonli bayonnomma
Gerbli muhr

**“O’ZMETKOMBINAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
MANFAATLAR ZIDDIYATIDA
HARAKAT QILISH TARTIBI
TO’G’RISIDAGI NIZOM**

MUNDARIJA

| | | |
|------|---|---|
| I. | UMUMIY QOIDALAR..... | 3 |
| II. | NIZOM TA'SIRI DOIRASIGA TUSHADIGAN SHAXSLAR..... | 3 |
| III. | JAMIYATDA MANFAATLAR ZIDDIYATINI BOSHQARISHNING ASOSIY TAMOYILLARI | 3 |
| IV. | MANFAATLAR ZIDDIYATI PAYDO BO'LISH SABABLARI (SHARTLARI).... | 3 |
| V. | MANFAATLAR ZIDDIYATINI BARTARAF ETISH | 4 |
| VI. | MANFAATLAR ZIDDIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH..... | 7 |
| VII. | YAKUNIY QOIDALAR | 9 |

I. UMIMIY QOIDALAR

1. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatni (keyingi o'rinnlarda – Jamiyat) ustavi, korporativ boshqaruv kodeksiga binoan ishlab chiqilgan va jamiyatda paydo bo'lgan manfaatlari ziddiyatini aniqlash va muvofiqlashtirish tartibini aniqlaydi.
2. Jamiyat faoliyatini amalgalashda Jamiyatning mulkiy yoki boshqa manfaatlari (uning boshqarish va nazorat organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari) bilan kreditor, kontragent va boshqa mijozlarning (keyingi o'rinnlarda – Mijozlar) mulkiy va boshqa manfaatlari orasida, Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlarining va (yoki) xodimlarining harakatlari (harakatsizligi) natijasida Mijoz huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan hollari vujudga kelib manfaatlari ziddiyati kelib chiqishi mumkin.

Bundan tashqari Jamiyat aksiyadorlari manfaatlari, Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari va aksiyador (aksiyadorlar) manfaatlari orasida ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin.

3. Ushbu nizomda manfaatlari ziddiyati kelib chiqishining quyidagi holatlari ko'rildi:

Majoritar (yirik paket aksiyalarga ega bo'lgan aksiyadorlar) va minoritar (kichik miqdordagi aksiyalarga ega bo'lgan aksiyadorlar) aksiyadorlar orasida;

Jamiyat boshqaruv organlari va uning aksiyadori (aksiyadorlari) orasida;

Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari orasida, mansabdor shaxslari, xodimlari va mijozlari orasida;

Jamiyat va mansabdor shaxslar, xizmat vazifalarini bajarayotganda jamiyat xodimlari orasida.

II. NIZOM TA'SIRI DOIRASIGA TUSHADIGAN SHAXSLAR

4. Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari va egallagan mansabidan qat'iy nazar uning barcha xodimlari qoidalarning ta'sir doirasiga tushadi.
5. Ushbu Nizomga riosa qilish talablari Jamiyat bilan fuqarolik huquqiy kelishuv asosida hamkorlik qilayotgan jismoniy shaxslarga, faqatgina bunday majburiyatlar ular bilan tuzilgan bitimda ko'rsatilganida, ularning ichki hujjatlarida yoki qonundan to'g'ridan – to'g'ri kelib chiqqanida kuchga kiradi.

III. JAMIYATDA MANFAATLAR ZIDDIYATINI BOSHQARISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

6. Jamiyatda manfatlar ziddiyatini boshqarish quyida keltirilgan tamoyillarga asoslanadi:

Real va bo'lishi mumkin bo'lgan manfaatlari ziddiyati haqida ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyati;

Har bir manfaatlari ziddiyati aniqlanganida va uni hal etishda Jamiyat uchun havflarni individual ravishda ko'rib chiqish va manfaatini baholash;

Manfaatlari ziddiyati va uni hal etish haqidagi ma'lumotlarni oshkor etishda qat'iy sir tutish;

Manfaatlari ziddiyatini hal qilishda Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari va uning xodimlari manfaatlari balansini saqlash;

Xodim tomonidan oshkor etilgan va Jamiyat tomonidan hal qilingan (bartaraf etilgan) manfaatlari ziddiyati haqida xabar bergen shaxsni himoya qilish.

IV. MANFAATLAR ZIDDIYATI PAYDO BO'LISH SABABLARI (SHARTLARI)

7. Jamiyat majoritar va minorital aksiyadorlari orasida, Jamiyat boshqaruv organlari va aksiyadorlari orasida manfaatlari ziddiyatini quyidagi sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin:

Qonunchilik talablari, normativ aktlari va Jamiyatning ichki hujjatlariga riosa qilmaslik;

Minoritar aksiyadorlarning Jamiyatning faoliyatiga, hamda aksiyadorlar umumiy majlisi va kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga sezilarli ta'sir ko'rsata olmasligi;

Vakolatli boshqaruv organlari bilan oldindan kelishuvsiz yirik bitimlar va afillangan bitimlar tuzish;

Boshqaruv organlari tomonidan Jamiyatning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladigan qarorlar qabul qilish;

Amaldagi qonunchilikga binoan oshkor qilinmagan ma'lumot yoki Jamiyat boshqaruv organiga kiradian shaxslar tomonidan, boshqa jamiyat boshqaruv organlarida egallagan mansablari, boshqa jamiyat ulushiga (aksiyalariga) egalik qilishi haqida ma'lumotlarni to'liq taqdim qilmaslik.

8. Boshqaruv organlari va nazorat organlari, manfaatdor shaxslar, xodimlar va mijozlar orasida manfaatlari ziddiyati quyidagilar natijasida kelib chiqishi mumkin:

Qonunchilik, jamiyat ta'sis va ichki hujjatlariga riosa qilmaslik;

Mijoz manfaatlari jamiyat manfaatlari oldida ustunligi tamoyiliga riosa qilmaslik;

Ishbilarmonlik muloqoti normalari va professional etika tamoyillariga riosa qilmaslik;

Jamiyat shuningdek, mijoz tomonidan kelishuv majburiyatlarini bajarmaslik;

Qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan o'rnatilgan majburiyatlarni bajarmaslik.

9. Jamiyat va manfaatdor shaxslar, xodimlar orasida manfaatlari ziddiyati quyidagi sabablarga ko'ra paydo bo'lishi mumkin:

Qonunchilik va Jamiyat ichki hujjatlari talablariga riosa qilmaslik;

Ishbilarmonlik muloqoti normalari va professional etika tamoyillariga riosa qilmaslik;

Shaxsiy va oila a'zolarining tijorat faoliyatini yuritish;

Jamiyat ish munosabatlarini yuritadigan boshqa korxonalarda moliyaviy manfaatlarga ega bo'lish;

Qo'shimcha ravishda boshqa korxonada raxbar, mansabdor shaxs bo'lib ishlash yoki uning boshqaruv organlarida qatnashish;

Shaxsiy manfaatlari yo'lida Jamiyat manfaatlari zarar yetkazadigan ishbilarmonlik imkoniyatlarni boshqa korxonalarga taqdim qilish.

V. MANFAATLAR ZIDDIYATINI BARTARAF ETISH

10. Jamiyat ustavi va uning ichki hujjatlarida manfaatlari ziddiyatini bartaraf etishning umumiy mexanizmlari ko'zda tutilgan.

Ushbu qoidalarda jamiyat boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslar va Jamiyat xodimlari bajarishi uchun majbuiy bo'lgan manfaatlari ziddiyatini bartaraf etish choralarini belgilanadi.

11. Har qanday turdag'i manfaatlari ziddiyatini bartaraf etish maqsadida Jamiyat boshqaruv organi, nazorat organi, mansabdor shaxslar, va xodimlari quyidagi majburiyatga egadirlar:

Qonunchilik, normativ aktlar, Jamiyat ustavi va ichki hujjatlari talablariga riosa qilish;

Jamiyatning samarali boshqaruvini ta'minlash;

Jamiyatni qonunga xilof faoliyati, shu jumladan jinoiy yo'l bilan topilgan foydani qonuniylashtirish va terrorizmni moliyalashtirish kabi ishlarga jalb qilish ehtimolini yo'qotish;

Mahsulot (ish va xizmatlar) ishlab chiqarishda maksimal samaradorlikni ta'minlash;

Qonunchilikka binoan boshqaruv organlari oldida har chorakda hisobot berish;

Jamiyat ustavi va ichki hujjaligiga binoan ichki va tashqi nazoratni amalga oshirish;

Kuzatuv kengashi diqqatiga, miqdori qonunchilik va jamiyat ustavida belgilangan miqdorlardan oshadigan yirik bitimlar, alohida bitimlar yoki bir qator o'zaro bog'liq bitimlarni ko'rib chiqish uchun taqdim qilish;

Boshqaruv organlari tomonidan yirik bitimlar va afillangan shaxslar bilan bitimlarni amalga oshirish shartlarini o'rganib chiqish;

Zarur hollarda, qonunchilik talablariga binoan bitimlar tuzish haqidagi qaror kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanganida, mulkning bozor narxini aniqlash uchun, mustaqil baholovchini jalb qilish;

Afillangan shaxslar haqida ma'lumotlarni hisobga olinishini yuritish;

- a) Afillangan shaxslar;
- b) Jamiyat aksiyadorlari va ularning afillangan shaxslari bilan

Bitimlarni tuzish va talablariga rioya qilishni ta'minlash;

Jamiyat vakolatlari organlari tomonidan tasdiqlanmagunicha, yirik bitimlar va afillangan shaxslar bilan bitimlar tuzmaslik;

AJ kuzatuv kengashi ruxsatisiz boshqa yuridik shaxslar boshqaruv va nazorat organlarida mansabga ega bo'lmaslik;

Jamiyatning Axborot siyosatiga binoan, amaldagi qonunchilik va qo'shimcha ma'lumotlar talablariga ko'ra, Jamiyat faoliyati haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish;

Aksiyadorlar va Mijozlar, tartibga solish, nazorat va boshqa manfaatdor shaxslarga, shu jumladan reklama maqsadlarida chop qilinadigan ma'lumotlar va bugalteriya hisobotlarini aniqligini ta'minlash;

Jamiyatdagi axborotlarga kirish huquqi bo'lган shaxslarni, ulardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishini oldini olish choralarini ishlab chiqish va yaxshilash;

Ommaviy axborot vositalari va boshqa manbalarda Jamiyat haqida salbiy ma'lumotlarni aniqliginni va obyektivligini o'z vaqtida tekshirish. Har bir paydo bo'lган noaniq yoki salbiy ma'lumot yuzasidan o'z vaqtida javob qaytarish;

O'rta va uzoq muddat davomida Jamiyatini muntazam ravishda foyda olishini ta'minlash;

Jamiyatni ichki nazorat tizimida kamchiliklarni aniqlashda ishtirok etish;

Jamiyat moliyaviy holatini nazorat qilish va Jamiyat faoliyati natijalari rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga mos kelishini tekshiruvchi boshqaruv va nazorat organi a'zolariga to'lovlarni meyordaligini ta'minlash;

Professional etika tamoyillariga rioya qilish.

12. Jamiyat aksiyadorlari orasida, shuningdek, boshqaruv va nazorat organi, mansabdar shaxslar, xodimlar va uning aksiyadori (aksiyadorlari) orasida manfaatlar ziddiyatini bartaraf etish

maqsadida, Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari, mansabdar shaxslar, xodimlar quyidagi majburiyatlarni oladilar:

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish haqidagi” Qonun, normativ aktlar, Jamiyat ustavi va ichki hujjatlari bilan belgilangan majoritar va minoritar aksiyadorlar huquqlariga rioya qilish;

Aksiyadorlarni qonuniy huquqlarini ta’minlash masalalari bo'yicha, Jamiyatning aniq va asoslangan o'rnini aksiyadorlarga o'z vaqtida bildirish;

Hisoblangan dividendlarni o'z vaqtida to'lash;

Ziddiyat sababi bo'lishi mumkin bo'lgan masalalar yuzasidan aksiyadorlarga to'liq ma'lumot berish;

Jamiyat boshqaruvi a'zolari tuzilishidan manfaatdor bo'lgan bitimlarni aniqlash, raqobatchi jamiyat aksiya (ulushlarini) sotib olishda, shuningdek, bunday shaxslarni boshqaruv organlarida ishtirok etishi;

Qabul qilinayotgan qarorlarning obyektivligi va mustaqilligini ta'minlash uchun kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolar nomzodligini qo'yishini ta'minlash.

13. Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdar shaxslar, xodimlari orasida manfaatlar ziddiyatini bartaraf etish maqsadida, Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdar shaxslar, xodimlar quyidagi majburiyatlarni oladilar:

O'rnatilgan tartibda jamiyat haqida ma'lumotlarni taqdim qilish;

Konfidensial va boshqa muhim ma'lumotdan foydalanish tartibiga qa'tiy ryoja qilinishini ta'minlash;

Bitimda o'zaro kelishilgan asoslarda o'rnatilgan miqdorda yoki ma'lumotlari to'liq oshkor etilgan tariflar bo'yicha mahsulot (xizmatlarni) sotish va Mijozlardan to'lovni olish;

Jamiyat Mijozlari manfaatlariga to'g'ri kelmaydigan bitimlar tuzilishiga yo'l qo'ymaslik;

Professional, to'liq va vijdonan o'z Mijozlari uchun mahsulot (xizmatlarni) sotish, shuningdek, bozorning joriy konyukturasidan kelib chiqqan holda, moliyaviy samaradorlik nuqtai nazaridan qaraganda Mijozlar topshirig'ini mukammal bajarish;

Mijozning yaqqol xatolikka yo'l qo'yganida (shu jumladan Mijoz imzolagan ariza, so'rovnama va boshqa hujjatlardagi hatoliklarda), bunday xatolardan xodimlarning bilvosita o'z manfaatlari yo'lida foydalanishiga yo'l qo'ymaslik. Mijoz topshirig'ida bunday xatolik mavjud bo'lsa, Jamiyat xodimi xato topshiriq bajarilmasligi uchun choralar ko'rishi va bu haqida Mijozga xabar berishi kerak;

Mijozga berilgan tavsiyalar, bu masala bo'yicha mavjud ma'lumotlar to'g'ri tahlilga asoslanishini ta'minlash;

Jamiyat faoliyati mobaynida yaratilgan, olingan va yig'ilgan ma'lumotlarni saqlash tizimini yaxshilash va bu bilan Jamiyatdagi qog'oz, magnit va boshqa vositalarda saqlanayotgan, xizmat yoki siri hisoblanadigan ma'lumotlar, Jamiyatning boshqaruv organi yoki vakolatli mansabdar shaxslarning roziligidisiz sotilishi, berilishi, ko'paytirilishi, nusxa olinishi, almashtirilishi va boshqa tarzda tarqatilishi mumkin emas.

14. Jamiyat va mansabdar shaxslar, xizmat vazifalarini bajarayotgan xodimlar orasida manfaatlar ziddiyatini bartaraf etish maqsadida, mansabdar shaxslar va xodimlar quyidagi majburiyatlarni oladilar:

Ishbilarmonlik muloqoti normalari va professional etika tamoyillariga rioya qilish;

O'rnatilgan tartibda bitimlar tuzish;

Jamiyatga raqobatchi bo'lgan tashkilot ulushi (aksiyasini) olish niyati haqida yuqori turuvchi mansabdar shaxs yoki boshqaruv va nazorat organlarini xabardor qilish;

Ziddiyatli holat kelib chiqishiga olib keladigan vaziyatlar vujudga kelgani haqida yuqori turuvchi mansabdar shaxsni o'z vaqtida xabardor qilish;

Mansabdar shaxs yoki uning oila a'zolari moliyaviy manfaatlari bo'lgan, va Jamiyat tijorat faoliyatini yuritayotgan yoki yuritmoqchi bo'lgan tashkilotlar haqida yuqori turuvchi mansabdar shaxslarni yozma ravishda xabardor qilish;

Mansabdar shaxs yoki uning oila a'zolari moliyaviy manfaatlari bo'lgan yoki afillangan shaxslar hisoblangan korxona va Jamiyat o'rtasidagi aloqaga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan har qanday faoliyatdan voz kechish;

Oldindan jamiyat ijroiya organi rahbaridan, manfaatlari Jamiyat manfaatlariiga zid keladigan boshqa tashkilot boshqaruv organlarida ishtirok etish uchun ruxsat olish;

Yuqori turuvchi mansabdar shaxsga boshqa tashkilotda o'rindosh bo'lib ishslash niyati haqida oldindan xabar berish va bu ish Jamiyat manfaatlariiga zid kelmasligini tasdiqlovchi ma'lumotlar berish.

VI. MANFAATLAR ZIDDIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH

15. Jamiyatda paydo bo'ladigan manfaatlari ziddiyatini muvofiqlashtirish uchun, Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari, mansabdar shaxslar va xodimlari Jamiyat manfaatlariiga javob beradigan, qonuniy va asoslangan yechimni topish maqsadida sud jarayonini amalga oshiradi.
16. Mansabdar shaxslar boshqaruv va nazorat organlari, korporativ kotib va tuzilmalari nomiga tushadigan, aksiyador va Mijozlardan kelib tushadigan xat, ariza va talabnomalarni (shu jumladan, og'zaki) ro'yxatga olish va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlashi kerak.
17. Korporativ ziddiyatlarni ro'yxarga olish Jamiyatning korporativ kotibiga yuklatiladi. Jamiyat korporativ kotibi korporativ ziddiyatlarga oldindan baho beradi, mavjud masala yuzasidan zarur hujjatlarni tayyorlaydi, va Jamiyat kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda, ushbu korporativ ziddiyatni ko'rib chiqish yuklatilgan Jamiyatning organiga beradi.
18. Jamiyat korporativ kotibi aksiyadorlarning ko'p uchraydigan savollari va talablarini tahlil qiladi, bu masalalar yuzasidan barcha aksiyadorlarga qo'shimcha ma'lumot berish haqida qaror qabul qiladi, yoki Jamiyat ijroiya organi rahbariga bunday murojatlar sabablarini bartaraf qilish maqsadida ichki tartib va yo'riqnomalarni o'zgartirish, boshqa choralarini ko'rish taklifini kiritadi.
19. Ziddiyatli holat haqida ma'lumotni Mijoz yoki boshqa manbalardan olgan xodim, yuqori turuvchi shaxsni bu haqida darhol xabardor qilishi kerak. Tashkiliy tuzilma darajasida ziddiyatlarni hal qilish imkon bo'lmasa, bo'linma rahbari bir ish kuni davomida ijroiya organ rahbari yoki uning muovuniga ziddiyat haqida ma'lumot berishi, uning kelib chiqish sababi, ko'rilgan choralar haqida xabardor qilishi kerak. Ijroiya organ rahbari yoki uning muovini ziddiyatni hal qilish tartibini belgilaydilar va bunga ma'sul shaxsni tayinlaydilar. Zarur hollarda manfaatlari ziddiyatini xal qiluvchi qo'mita tuziladi.
20. Vakolatli shaxs (qo'mita) manfaatlari ziddiyatini xal qilish uchun barcha choralarini ko'rishadi. Manfaatlari ziddiyatini xal etish imkon bo'lmasanida, ijroiya organ rahbari boshqaruv ko'rib chiqishi uchun bu masalani o'rtaqa qo'yadi, kuzatuv kengashi raisiga ziddiyat haqida ma'lumot yuboradi.

21. Ushbu ma'lumot ziddiyatli holatlarni aniqlash va hal qilish uchun tuzilgan, kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mita (ishchi guruh) tomonidan ko'rib chiqiladi.
22. Jamiyat ijroiya organi rahbari yoki uning muovinlari manfaatlariga ta'sir ko'rsatuvchi yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган ziddiyat haqida ma'lumot, uch ish kuni ichida ziddiyatni hal qilish tartibi to'g'risida qaror qabul qilish uchun kuzatuv kengashiga beriladi, qo'mita (ishchi guruh) ko'rib chiqishi uchun va ushbu masala bo'yicha hulosasini kuzatuv kengashiga taqdim qilinishi uchun beriladi.
23. Agar ziddiyatni ko'rib chiqish natijasida, Jamiatning amaldagi ichki hujjatlarini ishlab chiqish yoki o'zgartirish zarurati paydo bo'lsa, kuzatuv kengashi yoki ijroiya organ hujjatni ishlab chiqish yoki kerakli o'zgartirishar kiritish haqida qaror qabul qiladi.
24. Jamiatda har qanday manfaatlar ziddiyatini hal etish uchun, Jamiat boshqaruv organlari quyidagi majburiyatlarni oladilar:

Paydo bo'layotgan manfaatlar ziddiyatini maksimal tez aniqlash va ularning sababini aniqlash;

Jamiat boshqaruv organlari vakolatlari va ma'suliyatini aniq belgilash;

Jamiatning vakolatli shaxsini aniqlsh yoki, zarur hollarda, ziddiyat hal etish qo'mitasini tuzish;

Ziddiyat bo'yicha Jamiatning munosabatini qisqa muddatlarda aniqlash, kerakli qaror qabul qilish va zaddiyatning ikkinchi tomoniga u haqida xabar berish;

Ziddiyatning ikkinchi tomoniga Jamiatni ziddiyatga bo'lган munosabarini aniq ifodalaydigan, to'liq va asosli javob yuborish, shuningdek ziddiyat ishtirokchisi iltimosnomasi yoki talabnomasini rad etish haqidagi xabarni qonunchilik, normativ akt, ustav va Jamiat aksiyadorlarining umumiyligi majlisi tomonidan tasdiqlangan ichki hujjatlar bilan asoslab berish kerak;

Ziddiyatni hal etishda qatnashayotgan vakolatli shaxs, ziddiyat uning yoki oila az'olarining manfaatlriga ta'sir ko'rsatishi haqida darhol xabar berishi kerak;

Ziddiyatda o'zining manfaatlariga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lган shaxslar, bu ziddiyatni xal qilishda yoki u bo'yicha qaror qabul qilishda ishtirok etmasligi kerak.

25. Aksiyadorlar orasida, jamiat boshqaruv organi va aksiyadorlar orasida ziddiyatlarni hal qilish uchun:

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi jamiat aksiyadorlari orasida vujudga kelgan ziddiyatni hal qilishda vositachi sifatida harakat qilishi mumkin;

Jamiatning vakolatli shaxsi yoki vakolatli organi aksiyadorlar orasidagi muzokaralarda ishtirok etishi mumkin, o'z tasarrufida bo'lган va ziddiyatga aloqador bo'lган ma'lumot va hujjatlarni aksiyadorlarga taqdim qilish, qonun normalari, jamiat Ustavi va ichki hujjatlarini tushuntirish;

Jamiatning vakolatli shaxsi yoki vakolatli organlari aksiyadorlarga tavsiya va masahatlar berishadi, aksiyadorlar imzolashi uchun ziddiyatni hal qilish uchun hujjatlar loyihasini tayyorlaydilar, jamiat nomidan o'z vakolatlari doirasida, aksiyadorlar oldida ziddiyatni hal qilish uchun yetarli darajada majburiyatlarni o'z zimmasiga oladilar;

O'z vakolatlari doirasida Jamiat boshqaruv organlari korporativ ziddiyatni hal qilish bo'yicha qarorni amalga oshirishni ta'minlash va jamiat nomidan imzolangan, ziddiyat ishtirokchilari bilan tuzilgan bitimlarni amalga oshirilishiga yordam berishi kerak. Ziddiyat tomoni va jamiat orasida o'z majburiyatning o'zi yuzasidan kelishmovchilik bo'lmasa, lekin ularni bajarish tartibi, usuli, muddati va bajarilishning boshqa shartlari yuzasidan ziddiyatlar kelib chiqsa, jamiat ziddiyat qatnashchisiga paydo

bo'lган kelishmovchilikni hal qilishni taklif qilishi kerak va jamiyat aksiyadorlar talablarini qondirish uchun rozi bo'lган shartlarni bayon etishi kerak;

Agar aksiyador talabini qondirishga Jamiatning roziligi, bu taraf tomonidan qonunchilik, Ustav yoki Jamiatning boshqa ichki hujjatarida ko'zda tutilgan biron bir amaliyotlarni bajarish majburiyati bilan ifodalansa, bunda Jamiat javobida bunday shartlar to'lik ko'rsatiladi, shuningdek, ular bajarishga majbur bo'lган ma'lumot ko'rsatiladi (masalan, aksiyador so'ragan hujjatlarning nusxalarini tayyorlash uchun to'lov qiymati yoki Jamiat banki rekvizitlari va h.k.).

26. Ushbu choralar ro'yxati yakuniy hisoblanmaydi. Ziddiyat kelib chiqish sektoridan kelib chiqi, har bir muayya holatda ziddiyatni hal qilishni boshqa shakllari bo'lishi mumkin.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

27. Ushbu nizom, shuningdek unga o'zgartirish va qo'shimchalar aksiyadorlar umumiy yig'ilishida oddiy ko'pchilik ovoz bilan tasdiqlanadi.
28. Ushbu Nizomning ayrim normalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi va / yoki Jamiat ustaviga to'g'ri kelmasa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va bu moddalarga rioya etayotganda, ushbu nizomga kerakli o'zgartirish kiritgungacha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi va / yoki Jamiat ustaviga binoan amalga oshirish kerak.